GEOGRAFIYA O‘QITISHDA AN’ANAVIY VA INTERFAOL METODLAR INTEGRATSIYASI HAMDA ULARNING SAMARADORLIGI

Pirnazarov Ravshan Topvoldiyevich
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi
r.pirnazarov.73@gmail.com +998(90)-274-34-67
Muxtorova Gulbaxor Sherzod qizi
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab geografiya darslarida interfaol ta’lim metodikasi va an’anaviy ta’lim metodikasining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, qo‘llash imkoniyatlari hamda ta’lim jarayonidagi samaradorligi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Interfaol ta’limda o‘quvchining dars jarayonidagi faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi, guruhda ishlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va geografik ma’lumotlar asosida xulosa chiqarishiga alohida e’tibor qaratiladi.*

Maqolada ikki metodikaning o‘qituvchi va o‘quvchi roli, darsdagi faollik, bilimni o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash, muloqot, amaliy ko‘nikmalar va baholash mezonlari bo‘yicha farqlari yoritiladi. Shuningdek, geografiya fanining xarita, statistik ma’lumot, geografik tasvir, kuzatish va amaliy topshiriqlar bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda interfaol metodlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *geografiya ta’limi, interfaol ta’lim, an’anaviy ta’lim, pedagogik metodika, faol ta’lim, geografik fikrlash, muammoli ta’lim, guruhli ish, tadqiqotga asoslangan ta’lim, o‘quvchi faolligi.*

Kirish. Bugungi ta’limning globallashuv davrida maktab ta’limida o‘quvchidan faqat tayyor ma’lumotni eslab qolish emas, balki ma’lumotni izlash, tahlil qilish, taqqoslash, muammoni aniqlash, dalillar asosida fikr bildirish va xulosani asoslash talab etiladi. Shu sababli dars jarayonini faqat o‘qituvchining tushuntirishi va o‘quvchining tinglashi bilan cheklash o‘rniga, o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan metodlardan foydalanish muhimdir. Pedagogik texnologiyaga oid o‘zbek tilidagi ilmiy-metodik adabiyotlarda pedagogik jarayonni loyihalash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va interfaol metodlardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor berilgan [6].

Geografiya fani tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganadi. Geografik bilimlar xarita, globus, atlas, statistik jadval, grafik, diagramma, kuzatuv va amaliy topshiriqlar bilan ishlashni talab qiladi. Shuning uchun geografiya darsi o‘quvchining reproduktiv bilimini emas, balki kuzatish, fazoviy tasavvur, sabab-oqibatni aniqlash va hududiy tahlil ko‘nikmalarini ham rivojlantirishi zarur. Shu ma’noda bugungi kunda geografiyani o‘qitishda kartografik metodni interfaol, loyiha va raqamli yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirishga zamonaviy metodik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu ma’noda so‘ngi yillardagi zamonaviy tadqiqotlarda kartografik metodning vizuallik, aniqlik, tizimlilik, interaktivlik, fikrlash va refleksiya bilan bog‘liq imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan [3]. Yuqoridagi holatlar mazkur mavzuni bugungu kunning eng dolzarb masalasiga bag‘ishlanganligini izjhlaydi.

Muhokama va natijalar. Geografiya fanlarini o‘qitishda interfaol metodlar o‘quvchilarning bilish va ijodiy faolligini kuchaytirishi, amaliy va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkinligi haqida qator ilmiy tadqiqotlarda fikrlar bildirilgan [1; 2; 4; 5; 8].

An’anaviy ta’lim metodikasi ta’lim jarayonida o‘qituvchining yetakchi mavqega ega bo‘lishi, o‘quvchilarga bilimlarni tizimli va izchil tarzda yetkazib berishi hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni savol-javob, topshiriq va nazorat ishlari orqali tekshirishga asoslanadi. Geografiya ta’limida ushbu yondashuv asosan tushuntirish, hikoya, ma’ruza, suhbat, savol-javob, ko‘rsatish, xarita va atlas bilan ishlash, darslikdan foydalanish hamda amaliy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi [4; 7].

Geografiya ta’limiga oid zamonaviy tadqiqotlarda o‘qituvchi markazli usullarning asosiy shakllari sifatida ma’ruza, demonstratsiya, tushuntirish, savol-javob, mashq va topshiriqlar qayd etilgan [5; 8]. An’anaviy geografiya darsida o‘qituvchi mavzuning maqsadini belgilaydi, yangi geografik tushunchalarni izohlaydi, xarita va boshqa ko‘rgazmali vositalardan foydalanib, o‘quvchilarga zarur bilimlarni beradi. O‘quvchilar esa o‘qituvchining tushuntirishlarini tinglaydi, muhim ma’lumotlarni yozib oladi, darslik bilan ishlaydi va berilgan savollarga javob beradi. Bunday yondashuvda “o‘qituvchi - bilim manbai, o‘quvchi - bilimni qabul qiluvchi” munosabati ustun bo‘ladi. Tadqiqotlarda an’anaviy geografiya ta’limida darslik, uzoq davom etuvchi tushuntirish va ma’lumotlarni eslab qolishga katta e’tibor berilishi qayd etilgan [6].

Geografiya fanining mazmuni an’anaviy metodikadan foydalanish uchun keng imkoniyat beradi. Masalan:

-O‘zbekistonning tabiiy geografik rayonlari;

-Iqlim mintaqalari;

-Dunyo aholisi;

-Jahon xo‘jaligi;

-Materiklar va okeanlar.

Ushbu mavzularda o‘qituvchi asosiy tushunchalar, geografik qonuniyatlar va statistik ma’lumotlarni izchil tushuntirishi mumkin. Xarita, atlas, globus, jadval va diagrammalardan foydalanish esa o‘qituvchi tushuntirayotgan nazariy ma’lumotlarni ko‘rgazmali tarzda ifodalashga yordam beradi.

An’anaviy metodikaning muhim jihatlaridan biri — darsni aniq reja asosida tashkil etishdir. Odatda dars quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash va o‘quvchilarni darsga tayyorlash.

2. O‘tilgan mavzuni takrorlash: savol-javob, test yoki qisqa topshiriqlar orqali oldingi bilimlarni tekshirish.

3. Yangi mavzuni bayon qilish: o‘qituvchining tushuntirishi, hikoyasi yoki ma’ruzasi.

4. Ko‘rgazmali tushuntirish: xarita, atlas, globus, diagramma va rasmlardan foydalanish.

5. Mustahkamlash: savol-javob, xarita bilan ishlash yoki darslikdagi topshiriqlarni bajarish.

6. Baholash: o‘quvchilarning bilimlarini og‘zaki yoki yozma nazorat qilish.

7. Uyga vazifa berish: darslikdagi mavzuni o‘rganish va berilgan topshiriqlarni bajarish.

An’anaviy ta’limning asosiy afzalligi - o‘quv materialini tizimli, izchil va nazorat qilinadigan tarzda yetkazish imkoniyatidir. O‘qituvchi darsning borishini boshqaradi va mavzuning asosiy qismlariga kerakli darajada vaqt ajratishi mumkin. Ayniqsa, yangi geografik atamalar, nazariy tushunchalar, geografik qonuniyatlar va katta hajmdagi ma’lumotlarni tushuntirishda o‘qituvchining bevosita bayoni qulay bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, an’anaviy metodika katta sinflarda darsni tashkiliy jihatdan boshqarishni osonlashtiradi. Biroq, geografiya o‘qituvchilari bilan olib borilgan tadqiqotlarda sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi, vaqt cheklanganligi va o‘quv dasturining hajmi o‘quvchi markazli metodlarni qo‘llashda qiyinchilik tug‘dirishi mumkinligi qayd etilgan [4].

Yuqorida aytilgainek, an’anaviy ta’limning ayrim cheklovlari mavjud. O‘qituvchi markazli darslarda o‘quvchining mustaqil izlanishi, muammoni hal qilish, munozara olib borish va guruhda ishlash imkoniyatlari nisbatan cheklanishi mumkin. Geografiya ta’limi bo‘yicha tadqiqotlarda an’anaviy yondashuvda bilimlarni eslab qolish va qayta aytishga ko‘proq urg‘u berilishi, yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish esa yetarli darajada bo‘lmasligi mumkinligi ta’kidlangan. Bu o‘rinda qayd etilgan muammolarning yechimi sifatida interfaol darslardan foydalanishning samarasi naqadar yuqori bo‘lishi bugungu kunda o‘z isbotini topib ulgurdi.

Interfaol inglizcha “interact” (*inter - o‘zaro hamkorlikda, act - harakat qilmoq*) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zaro hamkorlikda harakat qilish ma’nosini bildiradi. Ta’limning interfaol metodi XX asrning oxiri va XXI asrning boshlaridan pedagogik adabiyotlarda keng ishlatilmoqda va ta’lim sohasida foydalanilmoqda. Uning asosiy maqsadi — o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga qiziqtirish, o‘z ustida ko‘proq ishlash, qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qish, zamon bilan hamnafas ta’lim-tarbiyaga, mustaqil fikr yurita oladigan komil insonni voyaga yetkazishdir [2; 6].

Interfaol o‘qitishning asosiy mohiyati - o‘qitish jarayonida barcha o‘quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo‘llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.

“Interfaol” tushunchasi o‘quvchilarning o‘zaro va o‘qituvchi bilan faol muloqoti, hamkorligi hamda ta’lim mazmunini faol o‘zlashtirishini anglatadi. Bunda o‘qituvchi bilimning yagona manbai sifatida emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va teskari aloqani ta’minlovchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi [5].

Interfaol ta’limning metodik mohiyati uch asosiy jihatda ko‘rinadi:

1. O‘quvchi faoliyatining markazga chiqishi;
2. O‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda bilim hosil qilishi;
3. O‘qituvchining jarayonni maqsadli boshqarishi.

Demak, interfaollik shunchaki o‘yin yoki guruhlarga bo‘lib ishlash emas. U aniq o‘quv maqsadi, topshiriq, muloqot, dalillash va yakuniy refleksiya bilan bog‘langan yaxlit metodik tizimdir.

Interfaol darsda o‘quvchi tinglovchi rolidan faol izlovchi roliga o‘tadi. Masalan, “Orol dengizi muammosi” mavzusida o‘qituvchi tayyor xulosani bermasdan, xarita va statistik ma’lumotlar asosida muammoning hududiy ko‘lamini aniqlash, sabablarni guruhlash, oqibatlarni baholash va yechimlar bo‘yicha taklif ishlab chiqish vazifasini berishi mumkin. Bunda geografik bilim amaliy fikrlash bilan bog‘lanadi.

Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o‘quvchining ustunlik qilishi, uning o‘z fikrini o‘tkazishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Interfaol usullar qo‘llanilganida o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallaydi.

O‘qitishning interfaol metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

-insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo‘lgan muloqot - o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi;

-o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga o‘z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlar beriladi;

-o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi;

-o‘quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari shart emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo‘lishiga erishish lozimligini anglaydilar;

-o‘quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo‘yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingan natijalarni tahlil qilish, ularning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e’tirof etilishiga erishishlari lozim.

Xulosa. Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktab geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchining bilish faolligini oshiradi, geografik va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Biroq, an’anaviy metodlardan butunlay voz kechish noto‘g‘ri yondashuvdir. Murakkab nazariy bilimlarni bayon qilishda an’anaviy tushuntirish usullaridan, ularni amaliyotda qo‘llash va rivojlantirishda esa interfaol metodlardan foydalanish, ya’ni ikki metodikani bir-birini to‘ldiruvchi tarzda uyg‘unlashtirish (integratsiya qilish) eng yuqori pedagogik samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2011/2012.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -Toshkent: Iste’dod, 2008.
3. Olimova A. Geografiyani o‘qitishda kartografik metodni qo‘llashning zamonaviy yondashuvlari va asosiy tamoyillari // O‘zMU Xabarlari. -Toshkent, 2024.
4. Qalandarova M.K. Geografiya o‘qitish metodikasi (Amaliy ishlar). –Toshkent, 2022.
5. Tolipov O‘.Q., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: Fan, 2006.
7. Vaxobov X., Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. -Toshkent: 2021. - 360 b.
8. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -Toshkent: O‘qituvchi.

GEOGRAFIYA TA’LIMIDA GRAFIKLI ORGANAYZERLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING TAHLILIY FIKRLASH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Pirnazarov Ravshan Topvoldiyevich
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
Mo‘minov Doniyor G‘ulomovich
Qo‘qon davlat universiteti Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi dotsenti g.f.n
Karimova Ruxshona Yigitali qizi
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya yo‘nalishi 4-kurs o’quvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada geografiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda grafikli organayzerlardan foydalanishning metodik va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada grafikli organayzerlarning mazmuni va vazifasiga ko‘ra 3 ta asosiy guruhga bo‘linishi nazariy va amaliy misollar bilan asoslab berilgan. Muallif “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “T-jadval”, “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti” va “Konseptual jadval” kabi organayzerlarni dars jarayoniga tatbiq etish usullarini ko‘rsatib bergan. Tadqiqot natijalari grafikli organayzerlar o‘quv materiallarini vizuallashtirish, talabalarning kognitiv va tanqidiy fikrlashini hamda amaliy-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.*